

---

## MAQSAD SUVNI TEJASH

Dehqonchilik uchun sarflanayotgan suv zaxiralari yildan-yilga kamayib borayotgani tufayli undan tejab-tergab foydalanish vazifasini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "2024 yilni kanallarni betonlash zarbdor yili" deb e'lon qilgan edi.

Bugun Farg'ona viloyatining shahar va tumanlarida Prezident topshirig'i amalga oshirilmoqda. Xususan, Toshloq tumanidagi ariq va soylarda betonlash ishlari boshlandi. Ayni kunlarda Toshloq tumanida betonlash ishlari 72 kilometrni tashkil etadi. Bu degani rejadagi ishlarning 51 foizi bajarilganidan dalolat.

Davlat rahbari hamma kuchni to'liq safarbar qilib, vegetatsiya davri boshlanguncha betonlash ishlarini yakunlash, kanallar atrofida daraxt ekish zarurligini ta'kidlagan edi. Suv yo'qotishlarini kamaytirish va suvni tejab ishlatish Suv xo'jaligi boshqarmasining eng asosiy vazifasi sanaladi. Ayni kunda Toshloq tumani bo'limi tomonidan ham betonlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, suv sarfini kamaytirish, mavjud suvlardan samarali foydalanishda ariq va kanallarning betonlashtirilishi muhim o'rin tutadi. Bu boradagi ishlarni o'z vaqtida, sifatli qilib bajarish sohaga mas'ul vakillarning zimmasiga katta vazifa va mas'uliyatni yuklaydi. Ma'lumotlarga qaraganda, mart oyiga qadar Farg'ona viloyatidagi betonlash ishlari yakuniga yetadi.

2025-01-18 11:08:48